



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI


TOSHKENT VILOYATI  
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot  
2024- yil yanvar-oktabr*



**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, %da



**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 27724,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,2 % ga yetdi. \*Yashirin iqtisodiyotni qo'shgan xolda

|                           | Jami,<br>mlrd. so'm | 2023- yil<br>yanvar-oktabr<br>oylariga<br>nisbatan,<br>foizda | Yirik<br>korxonala<br>r, mlrd.<br>so'm | 2023- yil<br>yanvar-oktabr<br>oylariga<br>nisbatan,<br>foizda | Kichik<br>biznes<br>va xususiy<br>tadbirkorlik,<br>mlrd. so'm | 2023- yil<br>yanvar-oktabr<br>oylariga<br>nisbatan,<br>foizda |
|---------------------------|---------------------|---------------------------------------------------------------|----------------------------------------|---------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------|
| <b>Toshkent viloyati*</b> | 27 724,0            | 111,2                                                         | 4 418,6                                | 116,8                                                         | 23 305,4                                                      | 110,2                                                         |
| <i>Shaharlar:</i>         |                     |                                                               |                                        |                                                               |                                                               |                                                               |
| Nurafshon                 | 487,4               | 108,4                                                         | 186,3                                  | 150                                                           | 301,1                                                         | 92,5                                                          |
| Olmaliq                   | 2 304,1             | 110,2                                                         | 261,1                                  | 101,9                                                         | 2 043,0                                                       | 111,4                                                         |
| Angren                    | 1 688,8             | 108,3                                                         | 375,6                                  | 118,2                                                         | 1 313,2                                                       | 105,8                                                         |
| Bekobod                   | 1 175,2             | 111,1                                                         | 211,2                                  | 137,9                                                         | 964,0                                                         | 106,6                                                         |
| Ohangaron                 | 909,2               | 112,3                                                         | 98,4                                   | 102,8                                                         | 810,8                                                         | 113,6                                                         |
| Chirchiq                  | 1 433,9             | 109,8                                                         | 353,0                                  | 123,2                                                         | 1 080,9                                                       | 106                                                           |
| Yangiyo'l                 | 1 671,9             | 109,4                                                         | 125,8                                  | 123,5                                                         | 1 546,1                                                       | 108,4                                                         |
| <i>Tumanlar:</i>          |                     |                                                               |                                        |                                                               |                                                               |                                                               |
| Oqqo'rg'on                | 1 044,3             | 109,7                                                         | 24,9                                   | 139,9                                                         | 1 019,4                                                       | 109,1                                                         |
| Ohangaron                 | 307,1               | 109,1                                                         | 41,1                                   | 122,2                                                         | 266,0                                                         | 107,3                                                         |
| Bekobod                   | 563,2               | 111,1                                                         | 25,7                                   | 64,1                                                          | 537,5                                                         | 115,1                                                         |
| Bo'stonliq                | 1 809,5             | 113,6                                                         | 561,6                                  | 122,3                                                         | 1 247,9                                                       | 110,1                                                         |
| Bo'ka                     | 980,6               | 111,8                                                         | 137,3                                  | 331,5                                                         | 843,3                                                         | 100,9                                                         |
| Quyichirchiq              | 383,1               | 110,9                                                         | 20,7                                   | 129,2                                                         | 362,4                                                         | 110,1                                                         |
| Zangiota                  | 3 295,1             | 116,1                                                         | 516,2                                  | 124                                                           | 2 778,9                                                       | 114,8                                                         |
| Yuqori Chirchiq           | 777,9               | 110,7                                                         | 136,1                                  | 150,9                                                         | 641,8                                                         | 104,8                                                         |
| Qibray                    | 1 841,8             | 111,1                                                         | 195,3                                  | 54,5                                                          | 1 646,5                                                       | 126,8                                                         |
| Parkent                   | 966,8               | 110,9                                                         | 63,5                                   | 149,4                                                         | 903,3                                                         | 108,9                                                         |
| Piskent                   | 608,3               | 110,8                                                         | 157,5                                  | 321,2                                                         | 450,8                                                         | 90,2                                                          |
| O'rta Chirchiq            | 335,5               | 109,6                                                         | 14,4                                   | 145,6                                                         | 321,1                                                         | 108,4                                                         |
| Chinoz                    | 721,0               | 111,4                                                         | 104,8                                  | 157,7                                                         | 616,2                                                         | 106,1                                                         |
| Yangiyo'l                 | 891,3               | 109,6                                                         | 118,1                                  | 149,5                                                         | 773,2                                                         | 105,3                                                         |
| Toshkent                  | 2 127,2             | 111,7                                                         | 243,4                                  | 73,5                                                          | 1 883,8                                                       | 119,7                                                         |

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan viloyatning Ohangaron shahri (112,3 %), Zangiota (116,1 %) va Bo'stonliq (113,6 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

*Hajmi, mlrd. so'm*



Toshkent viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Olmaliq shahar - 8,3 % (2 304,0 mlrd. so'm), Zangiota tumani - 11,9 % (3 295,1 mlrd. so'm), Toshkent tumani - 7,7 % (2 127,2 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Savdo tovar aylanmasida eng past ulush esa Ohangaron tumanida 1,1 % bilan 307,1 mlrd. so'mni tashkil etdi



## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra 23305,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,2 % ga oshdi. Bu esa umumiy savdo hajmining 84,1 % ulushiga to'g'ri keladi.

119,7

Toshkent

114,8

Zangiota

115,1

Bekobod

126,8

Qibray

113,6

Ohangaron sh.

111,4

Olmaliq sh.

## Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 16,8 % ga o'sdi va 4418,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 15,9 % ulushiga to'g'ri keldi.

129,2

Quy Chirchiq

149,5

Yangiyo'l

150,9

Yuqori Chirchiq

145,6

O'rta Chirchiq

139,9

Oqqo'rg'on

3,3 m.


Bo'ka

150,0

Nurafshon sh.



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Toshkent (88,6 %), Yangiyo'l (86,8%) va Chinoz (85,5 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 15,9 %ni tashkil etib, eng katta ulush Nurafshon shahar (38,2 %) hamda Bo'stonliq (31,0 %), Piskent (25,9 %) va Ohangaron (13,4 %) tumanlarida kuzatildi.

**Hududlar kesimida ma‘lumot, ming so‘mda**

|                          | Hajm,<br>ming.so‘m | 2023- yil yanvar-oktabr<br>oylariga<br>nisbatan, %da |
|--------------------------|--------------------|------------------------------------------------------|
| <b>Toshkent viloyati</b> | <b>9 020,9</b>     | <b>109,1</b>                                         |
| <i>Shaharlar:</i>        |                    |                                                      |
| Nurafshon                | 8 596,8            | 105,1                                                |
| Olmalik                  | 15 620,5           | 106,9                                                |
| Angren                   | 9 198,0            | 106,3                                                |
| Bekobod                  | 11 192,0           | 108,9                                                |
| Ohangaron                | 21 856,9           | 110,7                                                |
| Chirchiq                 | 8 245,5            | 107,2                                                |
| Yangiyo‘l                | 19 396,0           | 105,5                                                |
| <i>Tumanlar:</i>         |                    |                                                      |
| Oqqo‘rg‘on               | 9 249,6            | 107,9                                                |
| Ohangaron                | 2 742,0            | 107,0                                                |
| Bekobod                  | 3 380,4            | 109,5                                                |
| Bo‘stonliq               | 10 211,7           | 112,7                                                |
| Bo‘ka                    | 7 247,6            | 110,1                                                |
| Quyi Chirchiq            | 3 285,9            | 109,2                                                |
| Zangiota                 | 19 079,8           | 113,4                                                |
| Yuqori Chirchiq          | 5 552,1            | 109,0                                                |
| Qibray                   | 10 423,3           | 109,3                                                |
| Parkent                  | 5 383,2            | 108,8                                                |
| Piskent                  | 5 951,6            | 110,8                                                |
| O‘rta Chirchiq           | 2 426,1            | 107,3                                                |
| Chinoz                   | 4 921,7            | 109,3                                                |
| Yangiyo‘l                | 4 425,7            | 107,8                                                |
| <b>Toshkent</b>          | <b>10 599,0</b>    | <b>108,4</b>                                         |

2024- yilning yanvar-oktabr oylari holatiga o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 9 020,9 ming so‘mni (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 109,1 %) tashkil etdi.

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Yangiyo‘l shahar (19 396,0 ming so‘m), Ohangaron shahar (21 856,9 ming so‘m) va Zangiota (19 079,8 ming so‘m) tumani hissasiga to‘g‘ri keldi.

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

|                          | Jami,<br>mlrd.<br>so'm | 2023- yil<br>yanvar-oktabr<br>oylariga<br>nisbatan,<br>foizda | Dehqon<br>bozorlari,<br>mlrd. so'm | 2023- yil<br>yanvar-oktabr<br>oylariga<br>nisbatan,<br>foizda | Chorva<br>(parranda)<br>bozorlari,<br>mlrd. so'm | 2023- yil<br>yanvar-oktabr<br>oylariga<br>nisbatan,<br>foizda |
|--------------------------|------------------------|---------------------------------------------------------------|------------------------------------|---------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------|
| <i>Toshkent viloyati</i> | <b>2230,4</b>          | <b>111,3</b>                                                  | <b>718,8</b>                       | <b>124,1</b>                                                  | <b>1511,6</b>                                    | <b>108,5</b>                                                  |
| <i>Shaharlar:</i>        |                        |                                                               |                                    |                                                               |                                                  |                                                               |
| <i>Nurafshon</i>         | 10,3                   | 103,8                                                         | 10,3                               | 103,8                                                         | 0,0                                              | -                                                             |
| <i>Olmaliq</i>           | 204,3                  | 154,1                                                         | 64,3                               | 128,2                                                         | 140,0                                            | 169,8                                                         |
| <i>Angren</i>            | 46,5                   | 110,9                                                         | 46,5                               | 110,9                                                         | 0,0                                              | -                                                             |
| <i>Bekobod</i>           | 114,4                  | 68,5                                                          | 114,4                              | 68,5                                                          | 0,0                                              | -                                                             |
| <i>Ohangaron</i>         | 23,5                   | 112,5                                                         | 23,5                               | 112,5                                                         | 0,0                                              | -                                                             |
| <i>Chirchiq</i>          | 84,9                   | 2,0 m.                                                        | 84,9                               | 2,0 m.                                                        | 0,0                                              | -                                                             |
| <i>Yangiyo'l</i>         | 259,4                  | 82,6                                                          | 71,3                               | 165,1                                                         | 188,1                                            | 69,4                                                          |
| <i>Tumanlar:</i>         |                        |                                                               |                                    |                                                               |                                                  |                                                               |
| <i>Oqqo'rg'on</i>        | 90,5                   | 118,2                                                         | 19,0                               | 2,9 m.                                                        | 71,5                                             | 102,0                                                         |
| <i>Ohangaron</i>         | 0,0                    | -                                                             | 0,0                                | -                                                             | 0,0                                              | -                                                             |
| <i>Bekobod</i>           | 98,5                   | 162,1                                                         | 0,0                                | -                                                             | 98,5                                             | 162,1                                                         |
| <i>Bo'stonliq</i>        | 200,9                  | 73,8                                                          | 7,2                                | 131,0                                                         | 193,7                                            | 72,6                                                          |
| <i>Bo'ka</i>             | 199,6                  | 125,9                                                         | 71,6                               | 180,7                                                         | 128,0                                            | 107,6                                                         |
| <i>Quyi Chirchiq</i>     | 116,9                  | 124,8                                                         | 13,1                               | 141,1                                                         | 103,8                                            | 123,0                                                         |
| <i>Zangiota</i>          | 81,2                   | 117,9                                                         | 3,7                                | 60,1                                                          | 77,5                                             | 123,5                                                         |
| <i>Yuqori Chirchiq</i>   | 26,1                   | 186,3                                                         | 26,1                               | 186,3                                                         | 0,0                                              | -                                                             |
| <i>Qibray</i>            | 166,2                  | 111,1                                                         | 0,0                                | -                                                             | 166,2                                            | 111,1                                                         |
| <i>Parkent</i>           | 167,2                  | 171,5                                                         | 85,3                               | 3,0 m.                                                        | 81,9                                             | 118,5                                                         |
| <i>Piskent</i>           | 127,6                  | 116,7                                                         | 5,5                                | 187,3                                                         | 122,1                                            | 114,8                                                         |
| <i>O'rta Chirchiq</i>    | 0,0                    | -                                                             | 0,0                                | -                                                             | 0,0                                              | -                                                             |
| <i>Chinoz</i>            | 141,3                  | 122,8                                                         | 64,3                               | 78,1                                                          | 77,0                                             | 2,4 m.                                                        |
| <i>Yangiyo'l</i>         | 0,0                    | -                                                             | 0,0                                | -                                                             | 0,0                                              | -                                                             |
| <i>Toshkent</i>          | 71,1                   | 2,5 m.                                                        | 7,8                                | 71,4                                                          | 63,3                                             | 3,5 m.                                                        |



**Dehqon bozorlari**



**Chorva bozorlari**

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida Toshkent viloyatining barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 718,8 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (355,0 mlrd.so‘m) to‘g‘ri keldi.

## Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

|                                                                                                                                                                                    |                                                                                                                                                                                                                              |                                                                                                                                                                                                        |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Yangi uzilgan qishloq<br/>xo‘jaligi mahsulotlari</b><br><br><b>355,0<br/>mlrd. so‘m</b><br><br> | <b>Non va non<br/>mahsulotlari</b><br><br><b>64,2<br/>mlrd. so‘m</b><br><br>                                                                | <b>Don mahsulotlari (mosh,<br/>loviya, guruch va boshqalar)</b><br><br><b>108,5<br/>mlrd. so‘m</b><br><br>           |
